“TASDIQLAYMAN”
“UMS” MChJ Ma’muriy direktori
M.R. Kamalidinov
(imzo)
2026-yil “07” 07

“UMS” MChJ
(“Universal Mobile Systems” mas’uliyati cheklangan jamiyati) ehtiyojlari uchun
TADIRAN ANL-N-903H rusumli, quvvati 60 000 BTU bo‘lgan ikki kanalli konditsionerlar demontaji

Unumdorligi 95 000 BTU bo‘lgan kanal turdagi ikkita split-tizimli konditsionerlarni yetkazib berish va o‘rnatish bo‘yicha

xarid qilish uchun
TEXNIK TOPSHIRIQ

Toshkent-2026

Mundarija

1. Umumiy ma'lumotlar ..... **Ошибка! Закладка не определена.**

1.1 Bajarilayotgan ishlar (ko'rsatilayotgan xizmatlar) nomi **Ошибка! Закладка не определена.**

1.2 Ishlar (xizmatlar) ni xarid qilish maqsadi..... 3

1.3 Xarid amalga oshirilayotgan loyihani amalga oshirish uchun asos **Ошибка! Закладка не определена.**

1.4 Ishlar va xizmatlar ro'yxati 3

2. Ishlarni bajarish (xizmatlar ko'rsatish) joyi. Qo'llanish sohasi.....**Ошибка! Закладка не определена.**

3. Ishtirokchiga qo'yiladigan umumiy talablar..... 3

4. Ishlarni bajarish (xizmatlar ko'rsatish) muddatlari..... 5

5. Xavfsizlik talablari..... 5

6. Topshirish va qabul qilish qoidalari bo'yicha talablar 5

7. Kafolatlarni taqdim etish hajmi va (yoki) muddatiga doir talablar ...**Ошибка! Закладка не определена.**

8. Obyektga bo'lgan mutlaq huquqlar va boshqa hujjatlarni berish tartib-taomili..... 6

9. Xodimlarni texnik o'qitish bo'yicha talablar..... 6

10. Qo'shimcha talablar 6

1. Mundarija

1.1 Ko'rsatilayotgan xizmatlar nomi

Ushbu xarid qilish tartib-taomili doirasida ishtirokchi Toshkent shahridagi "UMS" MChJ markaziy ofisining 2-qavatida o'rnatilgan TADIRAN ANL-N-903H 60 000 BTU rusumli ikkita kanalli konditsionerlarni demontaj qilish, demontaj qilinganlari o'rniga unumdorligi 95 000 BTU bo'lgan kanal turdagi ikkita split-tizimli konditsionerlarni yetkazib berish va o'rnatish bo'yicha tijorat taklifini taqdim etishi lozim.

Kanal turdagi split-tizimli konditsioner — bu jamoat yoki sanoat maqsadlarida foydalaniladigan katta binolarga o'rnatish uchun mo'ljallangan kanal turdagi yarim sanoat konditsioneri bo'lib, u katta maydonni bir tekisda isitish yoki sovitish uchun ishlatiladi.

1.2 Xizmatlarni xarid qilish maqsadi

Shahrisabz ko'chasi 1-uyda joylashgan "UMS" MChJ ma'muriy binosining 2-qavatiga o'rnatilgan, o'z xizmat muddatini o'tab bo'lgan va ta'mirlab bo'lmaydigan (2008-yildan beri foydalanilmoqda) TADIRAN ANL-N-903H 60 000 BTU rusumli ikkita kanalli konditsionerni almashtirish.

1.3 Xarid amalga oshirilayotgan loyihani amalga oshirish uchun asos

Xaridlar ta'mirlanmaydigan uskunalarning ishdan chiqishi sababli xaridlar rejasidan tashqari amalga oshiriladi.

1.4 Ishlar va xizmatlar ro'yxati

Toshkent shahridagi "UMS" MChJ markaziy ofisining 2-qavatida o'rnatilgan TADIRAN ANL-N-903H rusumli, quvvati 60 000 BTU bo'lgan ikki kanalli konditsionerni demontaj qilish, demontaj qilinganlari o'rniga unumdorligi 95 000 BTU bo'lgan kanal turdagi ikkita split-tizimli konditsionerlarni yetkazib berish va o'rnatish. Yuk ko'tarish mexanizmi bilan ishlash (ijrochidan yuk ko'tarish mexanizmi), 7 metr balandlikdagi havoza ustida ishlash (ijrochidan havoza). O'rnatiladigan konditsionerlar quyida ko'rsatilgan texnik tavsiflarga mos kelishi shart.

2. Xizmatlar ko'rsatish joyi. Qo'llanish sohasi

Toshkent sh., "UMS" MChJ, Shahrisabz ko'chasi, 1-uy.

3. Ishtirokchiga qo'yiladigan umumiy talablar

Xarid qilish tartib-taomiliga xodimlari gaz bilan payvandlash, balandlikda ishlash va kuchlanishi 1000 voltgacha bo'lgan uskunalar bilan ishlash bo'yicha o'qitilgan va tegishli ruxsatnomalarga ega bo'lgan kompaniyalar qo'yiladi. Konditsionerlarni montaj qiluvchi kompaniya o'rnatiladigan mahsulotlarni o'rnatish va ularga texnik xizmat ko'rsatish uchun amaldagi sertifikatlarga ega bo'lishi shart. Shuningdek, kompaniya konditsionerlarni o'rnatish bo'yicha kamida 1 yillik ish tajribasiga ega bo'lishi lozim. Konditsionerlarni ijrochining omboridan o'rnatish joyigacha yetkazib berish, transportdan tushirish va o'rnatish joyiga olib borish tender ishtirokchisi (ya'ni, Ijrochi) tomonidan amalga oshiriladi. Ijrochi o'zining soz va xavfsiz uskunalaridan foydalanib, montaj hamda ishga tushirish-sozlash ishlarining to'liq siklini ta'minlashi kerak. Qo'llaniladigan barcha materiallar yong'inga chidamlilik va yong'in xavfsizligi bo'yicha me'yoriy-texnik hujjatlar talablariga mos kelishi lozim. Barcha ishlar yong'in xavfsizligi, mehnat muhofazasi va ish olib borilayotgan xonalardagi sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya qilingan holda bajarilishi shart. Ishlarni bajarishda Buyurtmachining mulkiga zarar yetkazilishiga yo'l qo'yilmaydi. Bajarilgan ishlarni qabul qilish vaqtida nuqsonlar aniqlansa, ularni bartaraf etish Ijrochi hisobidan amalga oshiriladi. Konditsionerlarni o'rnatish bilan bog'liq barcha sarf-xarajat materiallari, xususan, freon quvurlari, bloklararo aloqa kabellari, ichki bloklardan suv chiqarish (drenaj), "Armstrong" osma shiftlarini demontaj va montaj qilish, shuningdek, ishtirokchining boshqa har qanday xarajatlari ishlarning umumiy qiymatiga kiritilgan bo'lishi shart.

Tovarning texnik tavsiflari

№	Tavsif nomi	Talablar
1	Yetkazib beruvchi	
2	Rusum	
3	Model	
4	Ishlab chiqaruvchi mamlakat	
5	Tovarga kafolat	36 oy
6	Xizmat muddati	Kamida 5 yil (60 oy)
7	Avtorizatsiya qilingan servis markazlarining mavjudligi	O'zbekiston Toshkent sh.
8	Konditsioner turi	Kanalli split-tizim
9	Kompressor turi	Spiral
10	Ish tartibi	Kecha-kunduz issiq-sovuq
11	Sovitish / Isitish unumdorligi (kVt) kamida	28.0/28,0
12	Sovutish / Isitish unumdorligi (BTU), kamida	950000/95000
13	Tavsiya etilgan xona maydoni	Kamida 250 m^2
14	Havo bosimi	Yuqori bosimli
15	Sovutish/isitishda iste'mol qilinadigan quvvat Vt (maksimal)	10600
16	Elektr ta'minoti (faza, kuchlanish, chastota)	(B)3~380~400 B, 50 Gts
17	Bloklar orasidagi maksimal masofa kamida (m)	20
18	Xladagent turi (freon)	O'zbekiston Respublikasida foydalanishga ruxsat etilgan ekologik toza
19	Ventilyator aylanish tezligini rostlash	bor
	Ventilyatsiya rejimi	bor
20	Solishtirma sovuqlik unumdorligi, W/W (minimal)	3,1
21	Havo sarfi, m3/soat kamida	3500
23	"Sovutish" rejimida tashqi muhit haroratida ish qobiliyatini saqlash, °C	+50
24	"Isitish" rejimida tashqi muhit haroratida ish qobiliyatini saqlash, °C	-15
25	"Sovutish" rejimida xona ichidagi ishchi harorat diapazoni °C oralig'ida bo'lishi kerak	+18 - + 30
26	LED-displey (belgilangan harorat, ish rejimi, yoqish/o'chirish)	bor
27	Shovqin darajasi, dB dan ko'p emas	60
28	Yetkazib berish va o'rnatish muddati:	30 kalendar kun

Har bir konditsioner uchun quyidagi komplektatsiya mavjud bo'lishi shart:

Masofadan boshqarish pulti, dona	bor
Konditsioner kondensatini chiqarib yuborish uchun gofralangan shlang, dona	bor
Konditsionerning bloklararo elementlarini izolyatsiyalash uchun ishlatiladigan plastifikatsiyalangan lenta, dona	bor
Konditsionerning tashqi va ichki bloklarini mahkamlash uchun kronshteynlar to'plami (mahkamlagichlari bilan)	bor
Bloklararo kuch kabeli, uzunligi kamida 12 m.	bor
Bloklararo kabel (signal) kamida 12 m.	bor
Termoizolyatsiyali bloklararo quvurlar (komplekt) kamida 10 metr.	bor
Yetkazib beruvchi qo'shimcha shartnoma asosida kafolat muddatidan keyin butlovchi ehtiyot qismlar (ichki va tashqi boshqaruv platalari) bilan ta'minlash imkoniyatiga ega. Ikki yil ichida	bor

Yetkazib berish talablari

Barcha xizmatlar, jumladan, Tovarni belgilangan manzilgacha yetkazib berish bo'yicha transport xarajatlarini, Tovarni ortish, tushirish yoki qayta yuklash xarajatlarini, qadoq/idish narxini, shuningdek tuzilgan shartnoma shartlarini bajarish bilan bog'liq boshqa xarajatlarni ham o'z ichiga oladi. Tovar qadog'ida uning nomi ko'rsatilgan yorliq (yopishtirma) bo'lishi shart. Qadoq Tovarni turli transport vositalarida tashish, shu jumladan qayta yuklash, tushirish va saqlash vaqtida uning but saqlanishini ta'minlashi kerak.

Komplektlash bo'yicha talablar

Tovarning butlanishi ushbu texnik topshiriqda keltirilgan ma'lumotlarga (tavsiflar jadvali), shu jumladan xarid qilinayotgan tovarning ilova qilingan pasportiga muvofiq bo'lishi kerak. Tovarning texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarga muvofiqligiga qo'yiladigan talablar. Sertifikatlanishi lozim bo'lgan tovar sertifikatga, ushbu texnik qurilmalarning O'zbekiston Respublikasi hududida amalda bo'lgan me'yorlar va standartlarga muvofiqligini tasdiqlovchi sertifikatga ega bo'lishi kerak.

4. Xizmatlar ko'rsatish muddatlari

Yangi konditsionerlarni yetkazib berish, demontaj qilish va o'rnatish bo'yicha barcha ishlarni 30 kalendar kun ichida bajarish kerak.

5. Xavfsizlik talablari

Xizmatlar ko'rsatishda atrof-muhitni muhofaza qilish va xizmat ko'rsatish xavfsizligi to'g'risidagi qonunchilik talablariga rioya qilish, ushbu talablarni buzganlik uchun uchinchi shaxslar oldida javobgar bo'lish. TXQ, TFQ, YoXQ qoidalariga rioya qilish.
Xizmatlar ko'rsatish natijasida hosil bo'lgan chiqindilarni olib chiqish.

6. Topshirish va qabul qilish qoidalari bo'yicha talablar

Montaj-sozlash ishlari yakunlangach, konditsionerlarni foydalanishga topshirishda quyida keltirilgan dalolatnomalar rasmiylashtiriladi.
6.1 Konditsionerlarni germetiklikka sinash dalolatnomasi.
6.2 Konditsionerni foydalanishga topshirish-qabul qilish dalolatnomasi.
6.3 Bajarilgan ishlar dalolatnomasi.
6.4 Barcha materiallardan foydalanish uchun sertifikatlar taqdim etish.
6.5 Hisob-faktura.
6.6 Bajarilgan ishlar bo'yicha ijro sxemasini tuzish.
6.7 Kuch simlarining izolyatsiya qarshiligini o'lchash bayonnomasi.

7. Kafolatlarni taqdim etish hajmi va (yoki) muddatiga doir talablar

Yetkazib beriladigan Tovar yangi bo'lishi, undan belgilangan maqsadda foydalanish uchun yaroqli bo'lishi, O'zbekiston Respublikasida belgilangan standartlar va ushbu toifadagi tovarlarning sifatiga qo'yiladigan talablarga muvofiq bo'lishi kerak. Ishlab chiqarilgan yili 2026-yildan oldin bo'lmasligi lozim. Yetkazib beruvchi Buyurtmachining talabiga binoan 5 (besh) kalendar kundan oshmagan muddatda tovarni belgilangan manzilga yetkazib berishi, kamomadini qoplashi, tegishli sifatga ega bo'lmagan tovarni tegishli sifatga ega bo'lgan tovarga almashtirishi yoki aniqlangan kamchiliklarni (nuqsonlar, nomuvofiqliklarni) bepul bartaraf etishi shart. Nuqsonli Tovarni almashtirish, uni yetkazib berish va sifatsiz Tovarni olib chiqib ketish bilan bog'liq barcha xarajatlarni Yetkazib beruvchi qoplaydi. Yetkazib berilayotgan Tovarning sifati va aniqlangan yashirin kamchiliklar bo'yicha e'tiroz bildirish muddati O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq belgilanadi.

Unumdorligi 95 000 BTU bo'lgan kanal turidagi split-tizimli konditsionerlarning talab etiladigan soni 2 dona. Yangi konditsionerlarni yetkazib berish, demontaj qilish va o'rnatish muddati – avans to'lovi amalga oshirilgan kundan boshlab 30 kalendar kun. Buyurtmachi tomonidan tovarni qabul qilish Toshkent

shahri, Shahrisabz ko'chasi, 1-uyda joylashgan "UMS" MChJga topshirilgan vaqtda amalga oshiriladi, bunda tovarning nomi, assortimenti, miqdori va sifati bo'yicha tuzilgan shartnoma va texnik xulosa shartlariga muvofiqligi tekshiriladi. Unumdorligi 95 000 BTU dan kam bo'lmagan kanal turdagi invertorli split-tizimli konditsionerlarga qabul qilish-topshirish dalolatnomasi imzolangan paytdan boshlab kamida 36 oy muddatga kafolat beriladi. O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahrida vakolatli servis markazi mavjud bo'lishi shart.

8. Obyektga bo'lgan mutlaq huquqlar va boshqa hujjatlarni berish tartib-taomil

Ijrochi buyurtmachiga unumdorligi 95 000 BTU bo'lgan kanal turidagi invertor split-tizimli konditsionerlarni o'rnatish va foydalanishga topshirish bo'yicha barcha hujjatlarni, texnik pasportni taqdim etishini ta'minlashi shart.

9. Xodimlarni texnik o'qitish bo'yicha talablar

Ijrochi buyurtmachiga unumdorligi 95 000 BTU bo'lgan kanal turidagi split-tizimli konditsionerlarni o'rnatish va foydalanishga topshirish bo'yicha barcha hujjatlarni, texnik pasportni taqdim etishini ta'minlashi shart.

10. Qo'shimcha talablar

Yetkazib beruvchi, yetkazib berilayotgan tovar uchun hisobvaraq-fakturani, zarur hollarda ushbu texnik qurilmalarning O'zbekiston Respublikasi hududida amalda bo'lgan normalar va standartlarga muvofiqlik sertifikatini taqdim etishi shart.
Buyurtmachi quyidagi holatlarni aniqlagan taqdirda Tovarni qabul qilishdan hamda qabul qilish-topshirish dalolatnomasi va hisobvaraq-fakturani imzolashdan bosh tortish huquqiga ega:
- kamomad aniqlanganda;
- sifatsiz Tovar topshirilganda, shu jumladan uning parametrlarga mos kelmasligi, shuningdek, Tovarning funksionalligiga va belgilangan maqsadda ishlatilishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan ko'zga ko'rinadigan (yaqqol) nuqsonlar mavjud bo'lganda; - Tovarning butligi va sortimentiga oid shart buzilganda; - Tovarning O'zbekiston Respublikasida belgilangan standartlarga va ushbu toifadagi tovarlar sifatiga qo'yiladigan talablarga mos kelmaganda.

Ishlab chiqilgan:

MFHG yetakchi mutaxassisi M.S. Ruzaykina

Kelishilgan:

MFHG rahbari B. Ubaydullayev